

RAQAMLI SOLIQ ISLOHOTI YO'LIDA: O'ZBEKISTON QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I TIZIMI TAHLILI

Mallaxanov Javohir Qahramon o'g'li

Guliston davlat universiteti "Raqamli iqtisodiyot va inovatsiyalar fakulteti"

75-23-guruh talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) yuritilish amaliyoti, huquqiy asoslari, raqamlashtirishdagi holatlar va tadbirkorlik subyektlarining duch kelayotgan muammolari atroflicha tahlil qilingan. QQSning hisobga olish tartibi, onlayn tizimlar orqali topshirilishi va qaytarilishi (kompensatsiya) bo'yicha ilg'or tajribalar yoritiladi. Maqolada statistik ko'rsatkichlar va so'nggi yillarda joriy etilgan elektron tizimlar asosida tahlil keltirilgan.

Kalit so'zlar: *QQS, soliq hisobi, onlayn tizim, raqamlashtirish, kompensatsiya, elektron faktura, soliq nazorati.*

НА ПУТИ К ЦИФРОВОЙ НАЛОГОВОЙ РЕФОРМЕ: АНАЛИЗ СИСТЕМЫ НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ УЗБЕКИСТАНА

Маллаханов Жавохир Қахрамон ўғли

*Студент группы 75-23, "факультета цифровой экономики и инноваций",
Гулистанского государственного университета.*

Аннотация: В статье представлен подробный анализ практики администрирования налога на добавленную стоимость (НДС) в Республике Узбекистан, его нормативно-правовой базы, состояния цифровизации и проблем, с которыми сталкиваются субъекты предпринимательства. Рассматривается порядок учета НДС, его представления и возврата (возмещения) через онлайн-системы. Анализ проведен на основе статистических показателей и электронных систем, внедренных в последние годы.

Ключевые слова: *НДС, налоговый учет, онлайн-система, цифровизация, возмещение, электронный счет-фактура, налоговый контроль.*

TOWARDS DIGITAL TAX REFORM: ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S VALUE ADDED TAX SYSTEM

Mallakhanov Javohir Qahramon ogli

Student of the 75-23 group of the Faculty of Digital Economy and
Innovations of Gulistan State University.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the practice of administering value-added tax (VAT) in the Republic of Uzbekistan, its legal framework, the state of digitalization, and the problems faced by business entities. The procedure for accounting for VAT, its submission and refund (compensation) through online systems are highlighted. The article presents an analysis based on statistical indicators and electronic systems introduced in recent years.

Keywords: *VAT, tax accounting, online system, digitalization, compensation, electronic invoice, tax control.*

KIRISH

O'zbekistonda soliqqa tortish tizimi iqtisodiy islohotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayniqsa qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ning samarali yuritilishi byudjet barqarorligi va tadbirkorlik muhiti uchun muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimi 2019-yildan boshlab bosqichma-bosqich isloh qilinib, QQS bo'yicha deklaratsiyalarni elektron shaklda topshirish, hisobga olish, kompensatsiya olish jarayonlari takomillashtirildi. QQS — bu bilvosita soliq bo'lib, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish jarayonida hosil bo'ladigan qo'shilgan qiymatga nisbatan undiriladi. Soliq yukining oxirgi iste'molchiga tushishi QQSning asosiy xususiyatlaridan biridir. Uning yurtimizdagi ahamiyati shundaki, davlat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga¹ muvofiq, QQS to'g'risidagi asosiy huquqiy normalar qayta ko'rib chiqildi va buxgalteriya hisobi amaliyotiga joriy etildi. Ushbu hujjatga binoan, soliq to'lovchilar deklaratsiyalarni elektron shaklda topshirishlari, elektron hisobvara-q-fakturalarni yuritishlari va davlat soliq xizmati organlari bilan bevosita raqamli aloqada bo'lishlari nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, QQS bo'yicha qonunchilikdagi yangiliklar, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun buxgalteriya yuritish jarayonida sezilarli

¹ <https://lex.uz/docs/-4674902>

o'zgarishlarni olib keldi. Raqamlashtirish jarayonlari orqali soliq intizomi kuchaytirilib, yashirin aylanmalar va soliqdan qochish holatlari kamaytirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish, xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hisobini yuritish va undirish amaliyotini takomillashtirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Adabiyotlarda QQS fiskal barqarorlikni ta'minlashda, byudjet tushumlarini barqaror oshirishda muhim vosita sifatida baholanadi.

Jahon tajribasida tan olingan iqtisodchilar R. Bird va P.-P. Gendron o'zlarining kitobida² rivojlanayotgan mamlakatlarda QQS tizimini samarali yuritish uchun soddalik, raqamlashtirish va ishonchli ma'muriy tizim zarurligini asoslagan. Ular QQS dizaynining aniqligi va soliq ma'muriyatining salohiyati bu tizimning muvaffaqiyatli ishlashida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi.

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan nashr etilgan³ yillik tahliliy nashrlarda turli mamlakatlardagi QQS stavkalari, yondashuvlari, imtiyozlari va qaytarish mexanizmlari solishtirilgan. Masalan, ushbu nashrda qayt etilishicha, 2022-yilda OECD mamlakatlarida QQS 20,8%ni tashkil qilgan va aktsiz solig'idan qariyb 4 barobar ko'p soliq tushumlarini keltirib chiqargan. O'zbekistonda esa 26,3%ni tashkil qilgan. Bu ma'lumotlar orqali O'zbekiston QQS siyosatini xalqaro standartlar bilan qiyoslab tahlil qilish mumkin.

Mahalliy adabiyotlardan, iqtisodchi olim M. A. Usmonov o'zining "O'zbekistonda QQS hisobini yuritish va amaliy muammolar" nomli maqolasida QQS tushumlarining yillik dinamikasini tahlil qilgan va soliqni qaytarish tizimidagi byurokratik kechikishlar savdo faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etgan.

Shuningdek, iqtisod fanlari nomzodi G'.T. Norqulova tomonidan yozilgan "Soliq siyosatini takomillashtirishda QQSning o'rni" nomli maqolada QQS hisobini yuritishda buxgalteriya jarayonlarini soddalashtirish, elektron hujjat aylanishi va soliq organlari bilan o'zaro integratsiyani kuchaytirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

Rossiyalik olim A. A. Yakovlev o'zining "Налогообложение в современной экономике" asarida QQSni qaytarish mexanizmidagi korrupsiya xavflari, ularni bartaraf etishdagi muammolar va yechimlar haqida fikr yuritgan.

² "The VAT in Developing and Transitional Countries" <https://doi.org/10.1017/CBO9780511619366>

³ "Consumption Tax Trends" <https://doi.org/10.1787/dcd4dd36-en>

Xususan, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarining joriy etilishi soliq sohasidagi shaffoflikni oshirishiga urg'u beradi.

Qozog'istonlik tadqiqotchi K. Y. Abishev esa "Qozog'istonda QQS hisoboti tizimining takomillashtirilishi" nomli ilmiy ishida elektron deklaratsiyalar, soliqni avtomatik hisoblash mexanizmlari va ularning soliq yuki hamda byudjetga ta'siri haqida fikr bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi va Moliya vazirligining yillik hisobotlari va statistik ma'lumotnomalari QQS tushumlari, QQS to'lovchilarning soni, ularning faoliyat yo'nalishlari va deklaratsiya topshirishdagi intizomi haqida muhim axborotlar manbaidir.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hisobini yuritish amaliyoti va undagi muammolar tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan bo'lib, dastlab QQSning mohiyati, huquqiy asoslari va xalqaro tajriba o'rganildi. Ishning empirik qismida esa O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, hamda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari, QQS bo'yicha hisobotlar va qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi. Shuningdek, soliq tizimida faoliyat yuritayotgan ayrim yirik xo'jalik subyektlari buxgalteriya hisobi amaliyoti o'rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo'llanildi:

- Tahlil va sintez usuli – QQSning hisob yuritilishiga oid qonunlar, normativ hujjatlar, ilmiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida;
- Taqqoslash usuli – O'zbekiston va ayrim xorijiy davlatlarda QQS yuritilishi bo'yicha farqlarni aniqlash;
- Deskriptiv statistik usul – QQS tushumlari dinamikasi, tushmagan summalar va qaytib berilgan soliq mablag'larining yillik o'zgarishini tahlil qilishda;
- Amaliy kuzatuv va suhbat usuli – yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalarda QQS hisoboti yuritilishidagi muammolarni aniqlash uchun.

Tadqiqot hududiy jihatdan O'zbekiston Respublikasida amalga oshirildi va 2019–2024 yillar oralig'idagi davr qamrab olindi. Hisob-kitoblarda Microsoft Excel dasturi yordamida grafik va jadval ko'rinishidagi tahlillar bajarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda bugungi kunda QQS stavkasi 12 %ni tashkil etadi. 2023-yil 150 mingdan ortiq yuridik shaxs QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan. QQS tushumlari 2024-yil yakuniga ko'ra 69.6 trln so'mni tashkil etgan ya'ni 20% o'sish kuzatilgan. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan QQS bo'yicha barcha deklaratsiyalarni *elektron* tarzda topshirish majburiyligi belgilangan. 2022-yildagi normativ o'zgarishlarga ko'ra QQS qaytarish muddatlari 60 kundan 30 kungacha qisqartirildi. Elektron hisobvara-q-faktura yuritilishi – 2021-yildan majburiy holatga o'tgan.


Raqamlashtirishdagi holatlar:

- Soliq.uz portali orqali EHF, QQS deklaratsiyasi, keshbek tizimi yuritilmoqda.
- 2023-yilda QQS hisobotlarining 96 % *elektron* shaklda topshirilgan.
- ERP tizimlar integratsiyasi: Korxonalar *1C*, *SAP* kabi dasturlardan avtomatik eksport qilmoqda.
- "My.soliq.uz" portali orqali soliq qarzlarini *onlayn ko'rish*, deklaratsiya holatini tekshirish mumkin.

Tadirkorlik subyektlarining muammolari- QQSni qaytarishda 2024-yilda 14kun kechikish qayt etilgan, noto'g'ri hisoblangan QQS summolari bo'yicha apellatsiyalar soni ortgan, bundan tashqari buyroktarik to'siqlar ya'ni QQS kompensatsiyasi uchun talab qilinadigan hujjatlar sonining ortiqqligi.

Ilg'or tajribalar (xalqaro va mahalliy):


- Qozog'iston – avtomatlashtirilgan QQS qaytarish tizimi (2022-yildan).
- Rossiya – AI asosidagi soliq monitoring tizimlari joriy etilgan (Yakovlev, 2021).
- O'zbekiston – "E-Soliq" platformasi orqali 2023-yilda 21,6 trln so'm QQS qaytarilgan (keshbek tizimi bilan birga).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Soliq tushumlari dinamikasi (2021-2024)

Dinamikada soliqlar oxirgi 4yil mobaynida qanday o'zgarganini kuzatishimiz mumkin.

O'zbekistonliklar 2023-yilda davlat byudjetiga qancha soliq to'laganligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, mamlakat byudjeti daromadlarining 165,9 trillion so'mi soliqlardan tushgan mablag'lar hissasiga to'g'ri keldi. Yil davomida jismoniy shaxslar salkam 30 trillion so'miga daromad solig'i to'lagan⁴.



2-rasm. 2022-2023-yillarda davlat byudjeti daromadlari tuzilmasi⁵.

■ - Bevosita soliqlar

⁴ <https://www.imv.uz/> - Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

⁵ <https://daryo.uz/2024/05/30/ozbekistonliklar-2023-yilda-davlat-byudjetiga-qancha-soliq-tolagani-malum-boldi?>

-  - Resurs soliqlari
-  - Bilvosita soliqlar
-  - boshqa daromadlar

2023-yilda davlat byudjeti daromadlari 231,7 trillion so'mga yetdi (2022-yilda 201,8 trillion so'm bo'lgan). Daromadlarning 165,9 trillion so'mi (tushumlarning 71,6 foizi) soliq, 58,4 trillion so'mi (25,2 foiz) boj to'lovlaridan shakllandi. Hisobot davrida daromadlar tarkibida bevosita soliqlar ulushi 31,6 foiz, bilvosita soliqlar 35,9 foiz, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 12,1 foizni tashkil etdi. Bevosita soliqlardan tushgan daromadlarning (jami 73,1 trillion so'm) eng katta ulushi foyda solig'i (40,8 trillion so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 29,9 trillion so'm so'mni (2022-yildagidan 5,6 trillion so'm ko'p) tashkil etdi.

Yil davomida bilvosita soliq tushumlari 83,32 trillion so'mga yetdi. Bunda qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi 57,9 trillion so'm, aksiz solig'i 15,8 trillion so'm bo'lgan.

O'z navbatida resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 28 trillion so'mni tashkil etdi. Bunday soliqlar tarkibidagi mol-mulk solig'idan byudjetga 5,1 trillion so'm, yer solig'idan salkam 7 trillion so'm, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan 15,3 trillion so'm tushgan. Vazirlik tahliliga ko'ra, o'tgan yili qo'shilgan qiymat solig'idan manfiy farqni qoplash uchun soliq to'lovchilarga 21,6 trillion so'm miqdorida QQS va keshbek summolari qaytarib berilgan.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy fiskal vositalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari, xususan QQS yuritilishi bilan bog'liq tartiblarning modernizatsiya qilinishi va raqamlashtirishga keng yo'l ochilishi mazkur soliq turining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, QQSdan tushayotgan daromad yildan-yilga barqaror ortib bormoqda va 2024-yil yakunlariga ko'ra 69,6 trillion so'mga yetgani bu sohadagi islohotlarning natijadorligidan dalolat beradi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi asosida QQS deklaratsiyalarining elektron shaklga o'tkazilishi, elektron hisobvaraq-faktura tizimining joriy etilishi, shuningdek, "my.soliq.uz" va "E-Soliq" kabi platformalar orqali hisobotlarni taqdim etish imkoniyatlari tadbirkorlik subyektlari uchun qulayliklar yaratdi. Ayniqsa, QQS kompensatsiyasi mexanizmlarining avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshirilayotgani byurokratik kechikishlar va inson omiliga bog'liq xatoliklarning oldini olishda ijobiy natija berdi. Bu esa, o'z navbatida, davlat va biznes o'rtasidagi ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, tizimda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ham mavjud. Jumladan, QQSni qaytarishdagi texnik va huquqiy kechikishlar, elektron

tizimlardan foydalanishdagi murakkabliklar, ayniqsa kichik tadbirkorlar orasida, ko'plab holatlarda hisobga olishda noto'g'ri yondashuvlarga olib kelmoqda. Ayrim hollarda bu QQS mablag'larining o'z vaqtida aylanmasiga qaytmasligiga sabab bo'lib, tadbirkorlarning likvidlik muammosini yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari, soliq nazoratining kuchayishi ba'zi tadbirkorlik subyektlari tomonidan QQSni yashirishga urinishlar va noto'g'ri hisobotlar taqdim etilishiga olib kelayotganini inkor qilib bo'lmaydi. Xalqaro tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, QQS tizimi eng samarali ishlashi uchun quyidagilar muhim: oddiy va tushunarli qonunchilik, avtomatlashtirilgan monitoring, shaffoflik, soliq to'lovchilar bilan ikki tomonlama raqamli aloqa va zamonaviy texnologiyalarga tayangan onlayn xizmatlar. O'zbekiston bu borada izchil harakat qilmoqda va so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar bunga isbot bo'la oladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, QQS tizimi O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu sohada olib borilayotgan islohotlar samaradorlik, shaffoflik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish, xususan, huquqiy soddalikni oshirish, texnik yordamni kuchaytirish va qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishida qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Shundagina QQS tizimi iqtisodiyotning barqaror rivojiga to'laqonli xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir, 2020-yil).
<https://lex.uz/docs/4674893>
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi statistik ma'lumotlari.
<https://soliq.uz/uz/statistika/statistika-ma-lumotlari>
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – 2024 yil 1-yarim yillik byudjet ijrosi hisobotlari.
<https://www.mf.uz/uz/news/yilning-1-yarim-yilligi-boyicha-hisobot.html>
4. Daryo.uz – "2023 yilda o'zbekistonliklar davlat byudjetiga qancha soliq to'lagani ma'lum bo'ldi".
<https://daryo.uz/2024/05/30/ozbekistonliklar-2023-yilda-davlat-byudjetiga-qancha-soliq-tolagani-malum-boldi>
5. Kun.uz – "2024 yilda soliq tushumlari qariyb 200 trln so'mga yetdi".
<https://kun.uz/news/2025/01/08/2024-yilda-soliq-tushumlari-qariyb-200-trln-somga-yetdi>

6. Daryo.uz - <https://daryo.uz/2024/05/30/ozbekistonliklar-2023-yilda-davlat-byudjetiga-qancha-soliq-tolagani-malum-boldi>
7. OECD. (2022). *Consumption Tax Trends 2022: VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends*.
<https://www.oecd.org/tax/consumption-tax-trends-19990979.htm>
8. Bird, R., & Gendron, P.-P. (2007). *The VAT in Developing and Transitional Countries*.
<https://www.brookings.edu/book/the-vat-in-developing-and-transitional-countries>
9. QQSNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRINI BAHOLASH
<https://cyberleninka.ru/article/n/qqsning-o-zbekiston-iqtisodiyotiga-ta-sirini-baholash/viewer>
10. Norqulova, G’.T. (2023). Soliq siyosatini takomillashtirishda QQSning o‘rni.
<https://samdu.uz/uz/news/single/iqtisodiyot-va-tafsilar-jurnali-4-son-2023>
11. Yakovlev, A. A. (2021). *Налогообложение в современной экономике*. Moskva: INFRA-M.
<https://cyberleninka.ru/article/n/nalogooblozhenie-v-sovremennom-mire/viewer>
12. Abishev, K. Y. (2021). Qozog’istonda QQS hisoboti tizimining takomillashtirilishi.
<https://articlekz.com/uz/article/31588>